

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDA
AXLOQIY LEKSIKANING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI

Ne'matova Feruzabonu Bekmuhammad qizi

Boysunova Chinnihol Raham qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22055691>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida qo'llangan axloqiy mazmunli leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Asarda insonning axloqiy qiyofasi, yaxshi va yomon xulqi, tarbiyasi, ilm-ma'rifati hamda ma'naviy fazilatlarini ifodalovchi leksik birliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida axloqiy leksik birliklarni aniqlash, ularni semantik guruhlariga ajratish, ijobiy va salbiy mazmun ifodalovchi birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ular o'rtasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarni aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, axloqiy leksika, leksik-semantik tizim, semantik guruh, axloqiy tushuncha, sinonimiya, antonimiya, jadid adabiyoti.

Annotation. This article examines the lexical-semantic features of ethical vocabulary used in Abdulla Avloni's work Turkiy Guliston Yoxud Axloq. The study analyzes lexical units expressing moral qualities, good and bad behavior, upbringing, knowledge, enlightenment, and spiritual values. Particular attention is paid to identifying ethical lexical units, classifying them into semantic groups, revealing the specific features of positive and negative ethical vocabulary, and analyzing synonymic and antonymic relations between these units. The study also considers the ways in which certain ethical concepts are expressed through word combinations and descriptive linguistic units.

Keywords: Abdulla Avloni, Turkiy Guliston Yoxud Axloq, ethical vocabulary, lexical-semantic system, semantic group, ethical concept, synonymy, antonymy, Jadid literature.

Аннотация. В статье исследуются лексико-семантические особенности этической лексики, использованной в произведении Абдуллы Авлони «Turkiy guliston yoxud axloq».

Анализируются лексические единицы, выражающие нравственные качества человека, положительные и отрицательные формы поведения, воспитание, знания, просвещение и духовные ценности. Особое внимание уделяется выявлению этических лексических единиц, их классификации по семантическим группам, определению особенностей положительной и отрицательной этической лексики, а также анализу синонимических и антонимических отношений между данными единицами.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, «Turkiy guliston yoxud axloq», этическая лексика, лексико-семантическая система, семантическая группа, этическое понятие, синонимия, антонимия, джадидская литература.

KIRISH. O'zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar adib, dramaturg va pedagog Abdulla Avloniy o'zbek milliy tafakkuri, ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy qarashlari rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tug'ilgan.

U dastlab eski maktabda, keyinchalik madrasada tahsil olgan. Yoshligidan ilm-ma'rifatga qiziqqan adib o'z ijodiy va ma'rifiy faoliyati davomida xalqni savodli qilish, yosh avlodni tarbiyalash, ilm-ma'rifat va odob-axloqni targ'ib etishga alohida e'tibor qaratgan.

Abdulla Avloniy ijodida inson tarbiyasi va axloq masalasi alohida o'rin tutadi. Adibning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari uning axloqiy-pedagogik qarashlarini aks ettiruvchi muhim asarlardan biridir. Asarda insonning xulq-atvori, tarbiyasi, ilm-ma'rifati, ezgu fazilatlar hamda axloqiy illatlari haqida fikr yuritiladi. Muallif yaxshi va yomon xulq, yaxshi va yomon ish, yaxshi va yomon fikr, yaxshi va yomon so'z kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali inson axloqining ijobiy va salbiy tomonlarini yoritadi.

Asarning til xususiyatlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, unda axloqiy tushunchalarni ifodalovchi ko'plab leksik birliklar va so'z birikmalari mavjud. Jumladan, yaxshi xulq, yaxshi ish, yaxshi so'z, yaxshi fikr kabi birliklar ijobiy axloqiy mazmunni ifodalasa, yomon, axloqsiz, tarbiyasiz, xulqi yomon, xulqi fano, nodon, johil kabi birliklar salbiy axloqiy mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur birliklar o'zaro semantik munosabatga kirishib, asarda inson axloqini ifodalovchi yaxlit leksik-semantik maydonni shakllantiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida qo'llangan axloqiy mazmunli leksik birliklarni aniqlash, ularni ijobiy va salbiy semantik guruhlarga ajratish, lug'aviy hamda kontekstual ma'nolarini tahlil qilish, shuningdek, ular o'rtasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarni aniqlash orqali asardagi axloqiy leksikaning leksik-semantik tizimini ochib berishdan iborat.

1. Kontekstual va lug'aviy ma'nolar tahlili. Salbiy axloqiy tushuncha. Lug'aviy ma'nosi – yaxshi, ezgu va ijobiy holatlarga zid bo'lgan, nomaqbul yoki salbiy xususiyatni ifodalovchi sifat.

Kontekstda "yamon" leksemasi "yaxshi" leksemasiga qarama-qarshi qo'llanib, insonning salbiy axloqiy holatini ifodalagan. "Nafs idrok ila yaxshini yamondan, oqni qoradan ayirur" jumlasida "yaxshi–yamon" qarama-qarshiligi orqali ijobiy va salbiy axloqiy tushunchalar ajratilgan.

2. Qora. Salbiy baholovchi tushuncha. Lug'aviy ma'nosi – rang bildiruvchi sifat bo'lib, oq rangning ziddi hisoblanadi. Kontekstda "qora" leksemasi "oq" bilan qarama-qarshi qo'llanib, "yaxshi–yomon" qarama-qarshiligi bilan parallel ravishda salbiy qutbni ifodalashga xizmat qilgan. "Oq–qora" munosabati orqali matnda qarama-qarshi ma'noli tushunchalar tizimi yuzaga kelgan.

3. Nafs. Ma'naviy-axloqiy tushuncha. Lug'aviy ma'nosi – insonning ichki mayllari, istaklari va ehtirosalarini ifodalovchi tushuncha. Kontekstda "Nafs idrok ila yaxshini yamondan, oqni qoradan ayirur" jumlasida insonning yaxshini yomondan farqlash jarayoni bilan bog'liq holda qo'llangan. Shu sababli mazkur kontekstda "nafs"ni bevosita salbiy axloqiy birlik sifatida baholash mumkin emas. Biroq asarning keyingi qismidagi "nafsi buzulub" birikmasida u salbiy axloqiy mazmun kasb etadi.

4. Axloqsiz. Salbiy axloqiy tushuncha. Lug'aviy ma'nosi – axloqiy me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan, odob-axloq talablaridan chetga chiqadigan holat yoki shaxsni ifodalovchi sifat.

Kontekstda "axloqsiz" leksemasi insonning axloqiy jihatdan noto'g'ri shakllanganligini va salbiy xulq-atvorga ega ekanligini ifodalagan. "Nafsi buzulub, tarbiyasiz va axloqsiz bo'lib o'sdi" birikmasida "axloqsiz" shaxsning salbiy axloqiy qiyofasini ifodalovchi birlik sifatida qo'llangan.

5. Tarbiyasiz. Salbiy tarbiyaviy-axloqiy tushuncha. Lugʻaviy maʼnosi – yetarli tarbiya olmagan, odob va axloqiy sifatлари shakllanmagan holatni bildiradi. Kontekstda “tarbiyasiz” leksemasi insonning yoshligidan toʻgʻri tarbiya olmaganligi natijasida salbiy xususiyatlarga ega boʻlishini ifodalagan. U “axloqsiz” leksemasi bilan birgalikda qoʻllanib, shaxsning tarbiyaviy va axloqiy jihatdan salbiy holatini kuchaytirgan.

6. Xulqi yomon. Salbiy axloqiy tushuncha. Lugʻaviy maʼnosi – insonning xulq-atvori, odobi va muomalasi jihatidan nomaqbul, salbiy xususiyatlarga ega ekanligini bildiradi.

Kontekstda “xulqi yomon” birikmasi insonning axloqiy qiyofasiga salbiy baho berish uchun qoʻllangan. Mazkur birlikda “xulq” insonning axloqiy xususiyatlarini, “yomon” komponenti esa ushbu xususiyatning salbiy bahosini ifodalaydi.

7. Xulqi fano. Salbiy axloqiy tushuncha. Lugʻaviy maʼnosi – xulqning buzilishi, yomonlashishi yoki nomaqbul holatga kelishini ifodalovchi birikma sifatida talqin qilinadi.

Kontekstda “xulqi fano” insonning salbiy xulq-atvorini ifodalash uchun qoʻllangan.

“Musulmonlarning diliga ittifoq oʻrniga nifoq, adolat oʻrniga zulm, muhabbat oʻrniga adovat, gʻayrat oʻrniga atolat, muruvvat oʻrniga gʻazab, saxovat oʻrniga buxl, tavozeʼ oʻrniga kibr, sadoqat oʻrniga iftiro, shafqat oʻrniga hasad, hilm oʻrniga hamoqat, hurmat oʻrniga xusumat, qanoat oʻrniga tama, sabr oʻrniga gʻurur, iqtisod oʻrniga isrof, afv oʻrniga dahshat, saʼy oʻrniga safahat, gʻayrat oʻrniga xurofot yerlashti.” (18-bet) Ushbu kontekstda ijobiy va salbiy soʻzlarning antonimi oʻz aksini topgan.

“**Nifoq**” salbiy axloqiy-ijtimoiy tushuncha boʻlib, lugʻaviy jihatdan birlik, totuvlik va hamjihatlikka zid boʻlgan kelishmovchilik, adovat va boʻlinish holatini anglatadi. Kontekstda mazkur leksema “**ittifoq**” tushunchasiga qarama-qarshi qoʻyilib, jamiyatdagi birlik va hamjihatlikning buzilishini ifodalagan. Shunday qilib, **ittifoq–nifoq** juftligi mazmuniy jihatdan antonimik munosabatni hosil qilgan.

“**Zulm**” leksemasi salbiy axloqiy-ijtimoiy tushunchani ifodalaydi. Uning lugʻaviy maʼnosi nohaqlik qilish, bironing haq-huquqini poymol etish, adolatsizlik koʻrsatish bilan bogʻliq. Asarda “zulm” “**adolat**” tushunchasiga qarama-qarshi qoʻyilib, insonlar oʻrtasidagi haqqoniylik va adolatning buzilishini ifodalagan. Mazkur birlik **adolat–zulm** antonimik juftligi tarkibida namoyon boʻladi.

“**Adovat**” salbiy axloqiy-ijtimoiy tushuncha boʻlib, dushmanlik, nafrat va yovuz munosabat maʼnolarini anglatadi. Kontekstda “adovat” ***“muhabbat”***ning ziddi sifatida qoʻllanib, insonlar oʻrtasidagi mehr-oqibatning yoʻqolishi va dushmanlikning yuzaga kelishini ifodalagan. Shu jihatdan **muhabbat–adovat** juftligi antonimik munosabatni yuzaga keltiradi.

“**Atolat**” leksemasi salbiy axloqiy tushunchani ifodalab, sustkashlik, gʻayratsizlik va faoliyatning susayishi bilan bogʻliq holatni bildiradi. Asarda u “**gʻayrat**” tushunchasiga qarama-qarshi qoʻyilib, insonning faol harakat va intilishdan uzoqlashishini ifodalagan. Natijada **gʻayrat–atolat** qarama-qarshiligi yuzaga kelgan.

“**Gʻazab**” salbiy ruhiy-axloqiy holatni ifodalovchi leksema boʻlib, kuchli jahllanish, achchiqlanish va tajovuzkor ruhiy holat maʼnolarini bildiradi. Kontekstda “gʻazab” “**muruvvat**” tushunchasining qarama-qarshi qutbida qoʻllanib, insoniy mehr-shafqat va yaxshilikka zid holatni ifodalagan.

“**Buxl**” salbiy axloqiy tushuncha bo‘lib, xasislik, qo‘lidagi narsani boshqalar bilan bo‘lishishni istamaslik ma‘nolarini anglatadi. Mazkur leksema asarda “**saxovat**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Shunday qilib, **saxovat–buxl** munosabati orqali saxiylik va xasislik kabi qarama-qarshi axloqiy belgilar ifodalangan.

“**Kibr**” salbiy axloqiy tushuncha sifatida insonning o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi, manmanlik va takabburlik holatini anglatadi. Kontekstda “kibr” ***“tavoze”***ga qarama-qarshi qo‘yilib, kamtarlikning ziddi sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur holat **tavoze’–kibr** antonimik munosabatini yuzaga keltiradi.

“**Iftiro**” salbiy axloqiy tushuncha bo‘lib, birovga qilmagan ishini nisbat berish, bo‘hton qilish yoki yolg‘on ayb qo‘yish ma‘nolarini anglatadi. Kontekstda u “**sadoqat**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilib, insonlar o‘rtasidagi ishonch va vafodorlikning buzilishini ifodalagan.

“**Hasad**” salbiy axloqiy-ruhiy tushuncha bo‘lib, o‘zgalarning yutug‘i, ne‘mati yoki yaxshi holatini ko‘ra olmaslik, uning yo‘qolishini istash mazmunini anglatadi. Asarda “hasad” “**shafqat**” bilan qarama-qarshi qo‘yilib, insoniy mehr va rahmdillikka zid ruhiy holatni ifodalagan.

“**Hamoqat**” salbiy aqliy-axloqiy tushuncha bo‘lib, nodonlik, aqlsizlik va fikriy zaiflik holatini bildiradi. Kontekstda u ***“hilm”***ga qarama-qarshi qo‘yilgan. Bunda “hilm” vazminlik va muloyimlikni, “hamoqat” esa salbiy aqliy-axloqiy holatni ifodalovchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

“**Xusumat**” salbiy axloqiy-ijtimoiy tushuncha bo‘lib, dushmanlik, adovat, janjal va qarama-qarshilik holatini anglatadi. Asarda “xusumat” “**hurmat**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilib, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va totuvlikning buzilishini ifodalagan.

“**Tama**” salbiy axloqiy tushuncha bo‘lib, o‘zgalarning narsasi yoki mol-mulkiga ko‘z olaytirish, ortiqcha manfaat kutish va mavjud narsaga qanoat qilmaslik holatini bildiradi.

Kontekstda “tama” ***“qanoat”***ga qarama-qarshi qo‘yilgan. Shu asosda **qanoat–tama** munosabati insonning mavjud ne‘matga rozi bo‘lishi va undan ortiqcha manfaat kutishi o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilikni ifodalaydi.

“**G‘urur**” leksemasi kontekstda salbiy axloqiy mazmun kasb etib, insonning o‘ziga ortiqcha bino qo‘yishi, manmanlik va o‘zini yuqori baholashi holatini bildiradi. U “**sabr**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, insonning o‘zini tuta bilishi bilan o‘ziga ortiqcha bino qo‘yishi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalagan.

“**Isrof**” salbiy axloqiy-iqtisodiy tushuncha bo‘lib, mol-mulk, vaqt yoki imkoniyatlarni me‘yoridan ortiq va behuda sarflashni anglatadi. Asarda u “**iqtisod**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilib, tejamkorlik va behuda sarflash o‘rtasidagi semantik zidlikni ifodalagan.

“**Dahshat**” kuchli qo‘rquv, vahima va qo‘rqinch holatini bildiruvchi salbiy ruhiy holat nomidir. Kontekstda u “**afv**” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Mazkur qarama-qarshilik boshqa juftliklardan farqli ravishda to‘liq lug‘aviy antonimiya emas, balki **kontekstual qarama-qarshilik** sifatida namoyon bo‘ladi.

“**Safahat**” salbiy axloqiy mazmunni ifodalovchi leksema bo‘lib, behuda mashg‘ulot, yengiltaklik va maqsadsiz hayot tarziga moyillikni anglatadi. Kontekstda u “**sa’y**”, ya‘ni harakat va intilish tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Shu sababli **sa’y–safahat** juftligi kontekstual semantik qarama-qarshilikni hosil qiladi.

“**Xurofot**” salbiy ma’naviy-ijtimoiy tushuncha bo‘lib, asossiz, ilmiy yoki mantiqiy dalilga tayanmagan ishonch va qarashlarni bildiradi. Kontekstda “xurofot” “**g‘ayrat**” bilan qarama-qarshi qo‘yilib, jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy hodisa sifatida talqin qilingan.

“**Dangasalik**” — salbiy axloqiy-xulqiy tushuncha bo‘lib, mehnat va faoliyatga sust munosabat, ish qilishdan qochish, erinchoqlik holatini ifodalaydi. Avloniy “**Dangasalik har vaqt insonni xor qilur**” (20-bet) jumlasida mazkur leksemani insonning qadr-qimmati va ijtimoiy mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illat sifatida talqin qiladi. Semantik jihatdan “**dangasalik**” mehnatsevarlikka zid bo‘lgan salbiy xususiyatni anglatadi va **salbiy axloqiy-xulqiy birliklar** guruhiga mansubdir.

“Yalqovlik, ko‘p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtni bekor o‘tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko‘p poshamak, foydasiz so‘zlar so‘zlamak, samovarlarda, ko‘chalarda aziz umrni bo‘sh o‘tkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrining egovi, Xudoning g‘azabidur.”(22-bet) Avloniy asarda salbiy axloqiy tushunchalarni ham muayyan semantik guruhlar asosida ifodalaydi. Jumladan, “yalqovlik”, “ko‘p uxlamak”, “vaqtni bekor o‘tkarmak”, “aysh-u ishrat qilmak”, “foydasiz so‘zlar so‘zlamak”, “aziz umrni bo‘sh o‘tkarmak” kabi leksema va birikmalar insonning mehnatdan, faoliyatdan va ma’naviy kamolotdan uzoqlashishini ifodalovchi salbiy axloqiy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur birliklar “riyozat” tushunchasiga semantik jihatdan qarama-qarshi qo‘yilib, muallifning axloqiy qarashlarini antitetik asosda ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, “vaqtni bekor o‘tkarmak” va “aziz umrni bo‘sh o‘tkarmak” birikmalarida vaqt va umrning inson uchun qadrlı ne‘mat ekani ta’kidlanib, ularni behuda sarflash salbiy axloqiy holat sifatida baholanadi.

Salbiy axloqiy leksikaning leksik-semantik xususiyatlari

Abdulla Avloniyning “**Turkiy guliston yoxud axloq**” asarida salbiy axloqiy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar keng qo‘llangan. Ular insonning bilimi, xulqi, faoliyati, nutqi va boshqa kishilarga munosabatini ifodalashiga ko‘ra turli semantik guruhlariga ajraladi.

Bilimsizlik va aql bilan bog‘liq salbiy birliklar: *bilimsiz, nodonlik, aqlsizlik*. Bu birliklar insonning ilm-ma’rifatdan uzoqligi va to‘g‘ri fikrlash qobiliyatining yetishmasligini bildiradi.

Faoliyatsizlik va iroda zaifligini yalqov, yalqovlik, qo‘rqoq, e’tiborsiz, viqorsizlik kabi birliklar ifodalaydi. Avloniy, shuningdek, *ko‘p uxlamak, vaqtni bekor o‘tkarmak, aziz umrni bo‘sh o‘tkarmak* kabi birikmalar orqali vaqt va umrni behuda sarflashni qoralaydi.

Axloqsizlik va odobsizlik *axloqsiz, adabsiz, qabohat, vijdotsiz* birliklari orqali ifodalangan. **Isrof va nafsga berilish** esa *musrif, isrofgar, isrof, aysh-u ishrat* kabi birliklarda namoyon bo‘ladi. Bu birliklar insonning me’yorni saqlamasligi va mavjud ne‘matlarni behuda sarflashini anglatadi.

Asarda **nutqiy-axloqiy illatlar** ham alohida o‘rin tutadi: *g‘iybat, masxara, hajv, safsata, so‘kuv, foydasiz so‘zlar so‘zlamak*. Ular inson nutqining axloqiy jihatdan nomaqbul ko‘rinishlarini ifodalaydi.

Kibr va manmanlikni *kibr, g‘urur, manmanlik, takabburlik, maqtanmoqlik* birliklari ifodalab, umumiy jihatdan insonning o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishini anglatadi. **Riyo va samimiysizlik** esa *riyokorlik, ikkiyuzlama, munofiq* birliklari orqali beriladi. Ularning umumiy ma’no belgisi — insonning so‘zi, amali va ichki niyatining bir-biriga mos kelmasligidir.

Xulosa qilib aytganda, insonlararo munosabat bilan bog‘liq salbiy axloqiy birliklarga *xiyonat, yolg‘onchi, muhabbatsiz, kin-u adovat, hasad, xusumat, zidlik* kabilar kiradi. Ular ishonchning buzilishi, mehrning yo‘qligi, adovat, hasad va dushmanlik kabi holatlarni ifodalaydi.

G‘amlik esa boshqa birliklardan farqli ravishda axloqiy illat emas, balki salbiy ruhiy-emotsional holatni bildiradi.

Shunday qilib, Avloniy asaridagi salbiy axloqiy leksika **bilimsizlik, yalqovlik, isrof, axloqsizlik, nutqiy illatlar, kibr, riyokorlik, xiyonat, hasad va adovat** kabi bir necha semantik guruhlarni tashkil etadi. Bu birliklar orqali muallif insondagi salbiy sifat va xatti-harakatlarni baholaydi hamda ularni **ilm, mehnat, odob, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat va ma‘naviy tarbiya** kabi ijobiy qadriyatlarga qarama-qarshi qo‘yadi.

YOMON XULQLAR. Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo‘lgan axloqi zamimalar: *g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama’, zulmdur.* (58-88-betlar) Salbiy axloqiy leksikaning semantik guruhlari

1. Hissiy va nafsiy holatlarni ifodalovchi birliklar: *g‘azab, shahvat.*

G‘azab — kuchli jahl va achchiqlanish; shahvat — kuchli nafsiy istak. Bu birliklar insonning o‘z hissiyoti va nafsini boshqara olmasligini ifodalaydi.

2. Aqliy-ma‘rifiy nuqsonlarni ifodalovchi birliklar: *jaholat, hamoqat.*

Jaholat — ilm va ma‘rifatdan bexabarlik; hamoqat — aqlsizlik, nodonlik. Ular insonning bilim va idrokidagi nuqsonni bildiradi.

3. Xulq-atvorga oid salbiy birliklar: *safohat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, jibonat.*

Safohat — behuda ish va ko‘ngilxushlikka berilish; atolat — yalqovlik, sustkashlik; hasosat — baxillik, pastkashlik; raxovat — sustlik, bo‘shashish; anoniyat — o‘zini ustun qo‘yish, xudbinlik; jibonat — qo‘rqoqlik. Bu birliklar inson xarakteridagi turli salbiy sifatlarni ifodalaydi.

4. Insonlararo munosabatdagi salbiy holatlar: *adovat, hasad, nifoq.*

Adovat — dushmanlik; hasad — boshqalarning yaxshiligini ko‘ra olmaslik; nifoq — ikkiyuzlamachilik, ichki va tashqi munosabatning nomuvofiqligi. Bu birliklar kishilar o‘rtasidagi salbiy munosabatlarni bildiradi.

5. Nutqiy-axloqiy illatlarni ifodalovchi birliklar: *namimat, g‘iybat, haqorat.*

Namimat — kishilar orasida gap tashish; g‘iybat — biror kishini yo‘qligida yomonlab gapirish; haqorat — kishining sha‘niga tegadigan yomon so‘z yoki muomala. Ular nutq orqali yuzaga keladigan axloqiy illatlarni ifodalaydi.

6. Manfaatparastlik va adolatsizlikni ifodalovchi birliklar: *tama’, zulm.*

Tama’ — o‘z manfaatini ko‘zlab, biror narsaga haddan tashqari umid qilish; zulm — nohaqlik, boshqalarga jabr yetkazish. Bu birliklar insonning manfaatga munosabati va boshqalarga qilgan nohaqligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxshilloeyvna, S. M. (2022). BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI NUTQI NAMUNA-O‘RNAK VOSITASI SIFATIDA. *Scientific Impulse*, 1(4), 1288-1292.

2. Baxshilloevna, S. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(2), 146-152.
3. Sharipova, M. B. (2021). Laylo Mirzo Qizi Muslimova XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, (7).
4. Sharipova, M. B., & Muslimova, L. M. Q. (2021). XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1130-1134.
5. Sharipova, M. B. (2021). Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, (7).
6. Baxshilloevna, S. M. (2023). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQ O'STIRISHNING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 168-168.
7. Baxshulloevna, S. M. (2022). «ALPOMISH» DOSTONI-VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA. *Scientific Impulse*, 1(4), 1426-1430.
8. Sharipova, M. B., & Ravshanova, G. F. Q. (2021). QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR. *Scientific progress*, 2(7), 1139-1144.
9. Шарипова, М. Б., & Саъдуллаева, М. Б. К. (2020). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Проблемы педагогики*, (6 (51)), 58-60.
10. Sharipova, M. (2020). O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. *Scientific progress*, 2(7), 1102-1108.
12. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
13. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
14. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, 2(7), 1135-1138.
15. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
16. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasini ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
17. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
18. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI-BADIY BARKAMOL ASAR. *Scientific progress*, 2(7), 1145-1148.

19. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
20. Шарипова, М. Б., & Хусаинова, З. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 106-108.